

# **Qoraqalpog`iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhafoza qilish qo'mitasi**

	Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhafoza qilish qo'mitasi rahbari vaqtincha vazifasini bajaruvchi	
	 Image not found or type unknown	
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich	Manzil:	230100, Nukus shahri, Berdaq guzari raqamsiz uy
	Telefon:	0 (361) 224-08-50
	E-mail:	<a href="mailto:rktabiat@exat.uz">rktabiat@exat.uz</a>
	Qabul kunlari:	Chorshanba 10:00-17:00

 Jolibekov Murat Baxtiyarovich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhafoza qilish qo'mitasi raisining o'rinnbosari	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, Berdaq guzari raqamsiz uy
	Telefon:	0 (361) 224-08-77

E-mail:	<a href="mailto:nukus@uznature.uz">nukus@uznature.uz</a>
Qabul kunlari:	Chorshanba 10:00-17:00

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYa VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish  
qo'mitasi raisining**

### **L A V O Z I M Y O' R I Q N O M A S I**

#### I. UMUMIY HOLATLAR

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi o'z ish faoliyatini "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida"gi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomlari, boshqa atrof tabiiy muhitga oid qonun osti hujjatlari, yo'rinqnomalarga binoan tashkil etadi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza kilish qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisiga va uning o'rinosariga bo'ysunadi .

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi Prezidiumi qaroriga asoslanib ishga tayinlanadi va bo'shatiladi.

4. Mansabi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza kilish qo'mitasi raisi Bosh Davlat inspektori hisoblanadi.

## II. LAVOZIM MAJBURIYATLARI

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza kilish qo'mitasini, Hay'atni, mahalliy jamg'arma Kengashini, Davlat ekologik ekspertizasi va ekologik sertifikatni boshqaradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'mitasi bilan shahar va tuman inspeksiyalari, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, xodimlar, hisobxona, huquq, xo'jalik ishlari bo'limgani, maxsus qism va fuqaro muxofazasi sektorlari ishlarini muvofiqlashtiradi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida Davlat xokimiyyati va davlat boshqaruv organlari, fuqarolarni o'z o'zini boshqarish mahalliy organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda tabiatni muhofaza qilish qonunlariga rioya etilishi va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshirilishida davlat nazoratini tashkil etadi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyiha va dasturlarida yagona atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan tejab tergab foydalanish siyosatini olib boradi.

4.Korxona, tashkilotlar tomonidan atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan kompleks foydalanish, saqlash, takror ishlab chiqish borasidagi loyiha va dasturlarining bajarilishini ustidan nazoratni ta'minlaydi.

5.Korxona, tashkilot va boshqa tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi loyihalari va chora tadbirlarini kelishadi va bajarilishini ustidan nazorat olib boradi. Me'yoriy hujjatlarni va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsion to'lovlар hisob-kitobini tasdiqlaydi va tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida tegishli ruxsatnomalarni beradi.

6.Tuproq, foydali qazilmalar, suv, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosining holati bo'yicha monitoring yuritilishini muvofiqlashtiradi, ob'ektlarning ifloslanishi analitik nazorat qilish va atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarga zararli ta'sirlar to'g'risida ma'lumotlar bankini yaratilishiga metodik rahbarlik qiladi.

7.Yangi(ta'mirlanayotgan) ob'ektlarni, tabiatni muhofaza qilish inshoatlarini qabul qilish va ishga tushurish bo'yicha davlat komissiyalari ishida, barcha turdagи faoliyat turlari uchun er ajratish xujjalarni kelishishda qatnashadi.

8.Aholi orasida ekologik bilim va madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshiradi, yoshlar orasida ekologik ta'lim darajasini ko'tarishga ko'maklashadi.

9.Korxonalar va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarda tabiatni muhofaza qilish qonunlariga rioya etilishi yuzasidan kompleks tekshirishlarni tashkillashtiradi va uni o'tkazilishini nazorat qiladi.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar va tuman tabiatni muhofaza qilish inspeksiyalari mutaxassislaridan o'z xizmat vazifalarini bajarmagan xolatlar uchun tushuntirishlar talab qiladi.

11.O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, mehnat va ishlab chiqarish tartibiga qattiq rioya qilishi va o'z ish vaqtidan unumli foydalanishi kerak.

12.O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'mitasi tomonidan o'rnatilgan tartibda hisobot berilishni tashkillashtiradi va ta'minlaydi.

### III. HUQUQLARI

1.Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tuman miyosida korxonalarga, tashkilotlarga mansabdar shaxslarga va jismoniy shaxslarga tabiatni muhofaza qilish borasida ko'rsatmalar beradi.

2.Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar va tuman hududidagi korxonalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilishning iqtisodiy mexanizmini amalga oshirishga qaratilgan qarorlariga asosan to'lov hisoblarini taqdim etishlarini va to'lov mablag'larining mahalliy jamg'armaga undirilishi bo'yicha ma'lumotlarni talab qiladi.

3.Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar va tuman inspektorlarining ish rejalarini bajarilishini nazorat qilish, ularning hisobot ishini va inspeksion ishlarini yaxshilashga nisbatan o'z takliflarini kiritish xuquqiga ega.

4.Tabiatning ifloslanishi, unga etkazilgan zarar, resurslardan oqilona foydalanimaganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga davogarlik qiladi.

5.O'z vakolati doirasida Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ma'muriy javobgarlik bo'yicha hujjatlarini ko'rib chiqadi va O'zR MjtKga asosan ma'muriy jarima soladi. Zaruriyat bo'lganda hujjatlarni huquqni muhofaza qilish organlariga yuboradi.

6.O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi rahbariyatiga tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini olib borish maqsadida zarur shart-sharoit yaratib berish uchun murojaat qiladi

#### IV. BILIMIGA QO'YILGAN TALABLAR

1. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Jo'qorg'i Kengash boshlig'i farmon, qarorlari va farmoyishlarini, Oliy Majlis va Jo'qorg'i Kengash qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarorlarini. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'mitasi Nizomini va me'yoriy xujjatlarni, O'zR Mehnat Kodeksini, Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini, O'zR MjtKni, O'zR Jinoyat Kodeksining ekologiyaga doir qismini, xo'jalik faoliyatining atrof muhitga va tabiiy resurslarga ta'sirining asosiy ko'rsatgichlarini, ishlab chiqarish korxonalarining va atrof muhitni muhofaza qilish inshootlarining ish texnologiyasini bilishi kerak.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasining buyruqlarini bilishi kerak.

3.Tekshirish natijalarini xujjatlashtirishni va ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish

bo'yicha o'z takliflarini kiritishni bilishi kerak.

4. Atrof muhitni muhofazasi bo'yicha chiqarilgan qonunlarga asosan ma'muriy choralar ko'rishni bilishi kerak. Huquqbuzarlik uchun tuzilgan bayonnomaga, qarorni xatosiz qonun va qonun osti hujjatlari asosida to'ldirishni bilishi kerak.

5.O'z ish faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi kerak.

6.O'z ustida malakasini oshirish uchun ishlashi, ilmiy bilimlarni oshirishi o'z mutahassisligi bo'yicha metodik qo'llanmalarga asoslanib ish yuritish lozim.

## V. KVALIFIKATsIYaGA TALABLAR

Oliy ma'lumotli yoki ekolog bo'lishi talab etiladi. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida yoki davlat boshqaruv organlarida 5 yildan kam bo'limgan ish stajiga ega bo'lishi lozim.